

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVYERSITETI

"TASDIQLAYMAN"

Jizzax davlat pedagogika universiteti
rektori_____prof. Sh.S.Sharipov
____ " ____" ____ 2023 yil

**IJODIY (KASBIY) IMTIXONLAR DASTURI VA
BAHOLASH MEZONI**

**KIRISH IMTIHONLARIDA "GEOGRAFIYA"
FANI MAVJUD BARCHA TURDAGI YO'NALISHLAR
(KO'ZI OJIZLAR) UCHUN DASTUR
(talim yo'nalishiga mos fan bo'yicha)**

JIZZAX - 2023

Dastur Jizzax davlat pedagogika universitet Kengashida ko‘rib chiqilgan va ma’qullangan. 2023 yil “___” _____dagi “___” sonli majlis bayoni.

Ushbu dastur O‘zbekiston Milliy universiteti o‘quv-uslubiy kengashi tomonidan 2023- yil “27” iyundagi №6 sonli majlis bayoni bilan tasdiqlangan Dastur asosida tayyorlangan.

Tuzuvchilar: JDPU Tabiiy fanlar fakulteti Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrasi mudiri dots. M.R. G‘odalov

JDPU Tabiiy fanlar fakulteti Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrasi dotsenti O.A.Adilova

Taqrizchi: JDPU Tabiiy fanlar fakulteti Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrasi prof. v/b. g.f.n. K.M.Xakimov

JPI qoshidagi Akademik litseyi direktori, geografiya fani o‘qituvchisi M.T.Goziyeva

KIRISH

Mazkur dastur ko'zi ojiz abiturientlar uchun mo'jallangan bo'lib, unda tabiiy geografiya hamda iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaga tegishli ma'lumotlar o'rinni olgan.

Tabiiy geografiya qismida Quyosh sistemasi, geografik qobiq va uning qismlari - Iitosfera, atmosfera, gidrosfera, biosfera, hamda geografik qobiqning tabaqalanishi, inson xo'jalik faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi tabiiy geografik jarayonlar, O'zbekiston tabiiy geografiyasi, O'zbekiston hududining tabiiy geografik rayonlashtirilishi, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya qismida esa iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning asosiy termin va tushunchalari, O'zbekiston Respublikasining geografik o'mi va uning xo'jalik rivojlanishiga ta'siri, O'zbekiston iqtisodiyotining tarmoqlar tuzilishi, O'zbekiston iqtisodiy rayonlashtirish, Juhon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi, Dunyo siyosiy xaritasining shakllanishi va rivojlanishi, dunyo siyosiy xaritasida O'zbekistonning tutgan o'mi kabi mavzular o'rinni olganki, ushbu mavzular abituriyentlar bilimini baholashda muhim o'rinni tutadi. Abituriyentlarning bilimlari tasdiqlangan mezon asosida baholanadi.

Fanning maqsad va vazifaiari

Geografiya fani bo'yicha tuzilgan ushbu dastur bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlar abituriyentlarning shu sohaga bo'lgan qiziqishi, bilim darajasi va keljakda geografiya ta'limi kasbi bo'yicha faoliyat yuritish kompetentsiyalarini belgilash maqsadida ishlab chiqilgan.

Ijodiy imtihonda abituriyentlar, avvalo, geografiya fanining jamiyat rivojida tutgan o'mi, yosh avlodni tarbiyalashdagi ahamiyati, o'zbek geograflarining jahon hamjamiyatidagi o'rni va geografiya ta'limini yuksak rivoj topganligi haqida asosli va mantiqli fikr-mulohaza yurita olishlari talab etiladi.

Abiturientning bilimiga qo'yiladigan talablar

Geografiya fanidan imtihoni bor boshqa ta'lim yo'namishlari bo'yicha geografiya fanining 2023-2024 o'quv yili ijodiy (kasbiy) imtihon dasturi bo'yicha

“Tabiiy geografiya” hamda “Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya” fanlarining har biriga quyidagi talablar qo’yiladi:

“Tabiiy geografiya” fanini o’zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida abiturient:

Tabiiy geografiyaning o’rganish obyekti, predmeti va vazifaiari. Uning xo’jalikdagi o’rni, amaliy ahamiyati. Fanning rivojlanish tarixi, Yer yuzining kashf etilishi va o’rganilish tarixi.

Quyosh sistemasi va Yer sayyorasi. Yerning Quyosh sistemasidagi o’rni. Yerning shakli, harakatlari, ularning geografik oqibatlari. Gradus to’ri, geografik koordinatalar. Joy plani va geografik xaritalar. Azimut. Masshtab. Joyning topografik plani. Geografik xarita.

Litosfera - Yerning tosh qobig‘i (Yer po’sti). Yerning ichki tuziiishi. Yerning tosh qobig‘i, Yer po’sti. Yer yuzi relyefini hosil qiluvchi ichki va tashqi jarayonlar.

Atmosfera - Yerning havo qobig‘i. Havo qobig‘ining tarkibi, tuziiishi. Yerning radiatsiya balansi. Albedo. Havo harorati. Havo bosimi va shamollar. Ob-havo va iqlim. Iqlim mintaqalari, turlari.

Gidrosfera - suv qobig‘i. Gidrosferaning tarkibiy qismlari. Dunyo okeani. Quruqlikdagi suvlar. Daryolar, ko’llar va muzliklar. Botqoqliklar. Yer osti suvleri.

Biosfera - hayot qobig‘i. Biosfera, uning tarkibi. Tabiatdagi o’rni. Biosferaga ta’sir ko’rsatuvchi omillar. Organizmlar o’rtasidagi o’zaro munosabatlar. Biosferaga inson ta’siri.

Geografik qobiq. Umumiy xususiyatlari, chegaralari. Gorizontal va vertikal tabaqalanishi. Umumiy geografik qonuniyatlar. Geotizimiar. Yer yuzini tabiiy geografik rayonlashtirish.

Inson xo’jalik faoliyatiga ta’sir ko’rsatuvchi tabiiy geografik jarayonlar. Tabiiy geografik jarayonlar. Denudatsiya. Erozion jarayonlar. Jarlanish va irrigatsiya eroziyasi. Gravitatsion jarayonlar. Tuproqning sho’rlanishi, qatqaloq hosil bo’ishi, botqoqlanish jarayonlari.

O‘zbekiston tabiiy geografiyasi. O‘zbekistonning geografik o‘mi, geologik tuziiishi, relyefi va orografiyasi, iqlimi va gidrografiyasi, tuproqlari, o’simlik va hayvonot olami, ularning geografik tarqalishidagi xususiyatlari.

O‘zbekiston hududining tabiiy geografik rayonlashtirilishi. Tekislik va tog‘oldi-tog‘ kichik provinsiyalari, ularning o‘zaro bog‘liqligi va tafovutlari. Tekislik kichik provinsiyasi okruglari: Ustyurt, Orol, Quyi Amudaryo, Qizilqum, Quyi Zarafshon. Tog‘ oldi-tog‘ kichik provinsiyasi okruglari: Farg‘ona, Chirchiq-Ohangaron, Mirzacho‘l, O‘rta Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo okruglarining tabiiy geografik xususiyatlari va tavsifini bilishi kerak.

“Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya” fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida abiturient:

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning tadqiqot obyekti va predmeti. Maqsad va vazifalari. Uning fanlar tizimida tutgan o‘rni va amaliy ahamiyati. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning shakllanishi va rivojlanish xususiyatlari.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning asosiy termin va tushunchalari. Hududiy mehnat taqsimoti. Ixtisoslashuv. Hududiy ishlab chiqarish majmualari. Iqtisodiy rayonlar. Iqtisodiy geografik o‘rin.

O‘zbekiston Respublikasining geograflk o‘rni va lining xo‘jalik rivojlanishiga ta’siri. O‘zbekistonning tabiiy sharoiti va resurslari. Ularning milliy iqtisodiyotni shakllanishi va rivojlanishidagi roli.

O‘zbekiston Respublikasi aholisi. Aholi soni, tadrijiy o‘zgarishlari va joylashishi. Aholining tarkibi va takror barpo bo‘lishi. Mehnat resurslari.

O‘zbekiston iqtisodiyotining tarmoqlar tuzilishi. Tarmoqlararo majmualar. Yoqilg‘i-energetika, metallurgiya, kimyo, mashinasozlik va metalni qayta ishslash, qurilish materiallari, o’nnon, yog‘ochni qayta ishslash, engil va oziq-ovqat sanoati. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi. Dehqonchilik va chorvachilikni hududiy tashkil etilishi va rivojlanishi. Transport va uning turlari. Aholiga xizmat ko’rsatish sohalari geografiyasi.

O‘zbekiston iqtisodiy rayonlashtirish. Iqtisodiy rayonlamning xo‘jalik rivojlanishi xususiyatlari. Toshkent iqtisodiy rayoni. Mirzacho‘l iqtisodiy rayoni.

Farg‘ona iqtisodiy rayoni. Samarqand iqtisodiy rayoni. Buxoro-Navoiy iqtisodiy rayoni. Qashqadaryo iqtisodiy rayoni. Surxondaryo iqtisodiy rayoni. Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni. O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalari.

Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. Jahon mamlakatlarining tabiiy sharoiti va resurslari. Jahon aholisi va uning joylashishi. Jahon xo‘jaligining shakllanishi va rivojlanishi xususiyatlari. Tarmoqlar tarkibi. Jahon sanoati, qishloq xo‘jaligi, transporti. Jahon mamlakatlari va ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. Global muammolar.

Dunyo siyosiy xaritasining shakllanishi va rivojlanishi. Mamlakatlaming ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ko‘ra turlari. Mintaqalar va mamlakatlaming dunyo siyosiy xaritasida tutgan o‘mi va roli. Dunyo siyosiy xaritasida Markaziy Osiyo davlatlari va O‘zbekistonning tutgan o‘mi kabilami bilishi kerak.

IJODIY (KASBIY) IMTIHON NATIJALARINI BAHOLASH M E Z O N I

Ko‘zi ojizlar uchun ijodiy imtihon 5 baholik tizimda baholanadi.

Ko‘zi ojizlar uchun kirish imtihonlari og'zaki tarzda o‘tkaziladi va har bir imtihon biletiga uchtadan nazariy savol kiritiladi.

Ijodiy imtihonni baholashda quyidagi mezonlardan kelib chiqiladi:

Quyidagi holatlarda abiturientga 5 (“a’lo”) baho qo‘yiladi:

- barcha savollarga to‘liq javob bersa;
- xatolarga yo‘l qo‘ymasa;
- javobi ilmiy va mantiqiy jihatdan to‘g‘ri bo'lsa;
- fikrlar asosli va faktik ma’lumotlarga asoslangan bo‘lsa.

Quyidagi holatlarda abituriyentga 4 (“yaxshi”) balio qo'yiladi:

- uchta savolga javob berish jarayonida ba’zi kamchiliklarga yo‘l qo'ygan bo'lsa;
- ayrin juz’iy noaniqliklarga yo‘l qo'ygan bo'lsa;
- o‘z fikrini asoslashda ayrim kamchiliklarga yo‘l qo'ysa;
- bildirilgan fikrlar faktik ma’lumotlarga asoslanib berilsa;

Quyidagi holatlarda abiturientga 3 (“o'rta”) baho qo‘yiladi:

- uchta savolga javob berish jarayonida ba'zi kamchiliklarga yo'l qo'ygan bo'lsa;
- ayrim juz'iy noaniqliklarga yo'l qo'ygan bo'lsa;
- o'z fikrini asoslashda ayrim kamchiliklarga yo'l qo'ysa;
- fikrlar asosli, lekin faktik ma'lumotlarga asoslanmagan bo'lsa;

Quyidagi holatlarda abituriyentga 2 (“qoniqarsiz”) balio qo'yiladi:

- barcha savolga ham to'g'ri javob bera olmasa;
- barcha savollarga berilgan javoblar noto'g'ri va asossiz bo'lsa.

Ijodiy (kasbiy) imtihon komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini taslikil etish

Ijodiy (kasbiy) imtihon komissiyasi faoliyati 2023-2024 o'quv yili qabul komissiyasi tomonidan taslikil etiladi.

Geografiya fanidan sinovlar mavjud barcha turdag'i ta'lim yo'nalishlari bo'yicha ijodiy (kasbiy) imtihon komissiyasi tarkibi odatda uch nafar a'zodan kam bo'limgan holda tashkil etiladi.

Ijodiy (kasbiy) imtihon nalijalari uch kun muddatdan kechiktirilmagan holda e'lon qilinadi.

Geografiya fanidan sinovlar mavjud barcha turdag'i ta'lim yo'nalishlari bo'yicha ijodiy (kasbiy) imtihon natijalaridan norizo abituriyentlarning murojaatlarini ko'rib chiqish bo'yicha appellatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Appelyatsiya komissiyasi universitet qabul komissiyasi tomonidan tashkil etiladi.

Abituriyent ijodiy (kasbiy) imtihon natijalari e'lon qilingan vaqtidan boshlab, 24 soat ichida appelyatsiya komissiyasiga og'zaki yoki yozma shaklda murojaat etishi shart. Belgilangan muddatdan keyin murojaatlar qabul qilinmaydi.

Appelyatsiya komissiyasi abiturientning faqat o'zining ishi bo'yicha bildirilgan murojaatini yuzma yuz abituriyentning ishtirokida ko'rib chiqadi va yakuniy qaromi beradi.

Qabul komissiyasi mas'ul kotibi:

G'.Qodirov